

Yangiobodda reklamalarning Davlat tili talablariga muvofiqligi o'rganildi



Yangiobod tumanida Davlat tili talablariga mos kelmaydigan, imloviy va uslubiy xatoliklari mavjud bo'lgan peshlavhalarni yangilash va tartibga olish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

Bugun tuman hududidagi mavjud tashqi reklama vositalari, peshlavhalar, reklama bannerlari va boshqa axborot matnlari ishchi guruh tomonidan xatlovdan o'tkazilib, ularning imlo xatosiz yozilishi, Davlat tili qoidalarga mos kelishi yuzasidan o'rganishlar olib borildi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" gi qonunining 20-moddasiga to'g'ri kelmaydigan va imlo xato bilan yozilgan peshlavha, e'lon hamda boshqa axborot matnlari olib tashlandi hamda qonunning mazmun-mohiyati to'g'risida tadbiqkorlarga tushunchalar berildi.

Yangiobod tumani hokimligida tashkil etilgan tuman ishchi guruhi tomonidan tashqi yozuvlar, peshlavhalar, e'lonlar va boshqa axborot matnlarining Davlat tilida bo'lishini ta'minlash bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

D.XOJIMURODOV,

Yangiobod tumani hokimi maslahatchisi

Sudyalar ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi

Jizzax viloyati sudini jinoiyat ishlari bo'yicha sudov hay'atining sudyasi D.Eshmatov va jinoiyat ishlari bo'yicha Yangiobod tuman sudining raisi B.Mamadaminov tomonidan Yangiobod tumani Sovot qishloq fuqarolar yig'ini da joylashgan 4-sonli maktab o'qituvchi va o'quvchilari bilan ochiq muloqot o'tkazildi.

Uchrashuvda, ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarorining mazmun-mohiyati tushuntirib o'tildi. Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida jinoiyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini beruvchi o'lasida yuzasidan fikrlar bildirilib, qizg'in savol-javoblar bo'ldi.

Yoshlar o'rtasida jinoiyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadida ilgari sodir etilgan jinoiyatlar va huquqbuzarliklarga ham to'xtalib o'tildi.

Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilarga farazandaning o'quv muassasasiga muntazam kelishini ta'minlayotgan ota-onalarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qo'llanishni mumkinligi eslatib o'tildi.

Tuman hokimligi Axborot xizmati

Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun

Yangiobod tumanidagi barcha mahallalarda aholi va yoshlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifati Kengashining kengaytirilgan yig'ilish davomida berilgan topshiriqlar, ilgari surilgan tashabbuslar yuzasidan "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida "Mahallada duv-duv gap" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-musiqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Mazkur targ'ibot tadbirlari 3 bosqichda tashkil etilib, tadbirlar doirasida Prezident ma'ruzasining mazmun-mohiyatini tushuntirish bilan birga turli ko'rik tanlovlar, milliy ko'rgazmalar namoyishi, kitobxonlik aksiyalari va viktorinalari tashkil etildi.

Jumladan, yanvar oyining birinchi o'n kunligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifati Kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" mavzusida so'zlagan ma'ruzasining mazmun-mohiyati atroficha tushuntirilib, targ'ibotlar davomida ishtirokchilarga Yangi O'zbekistonda buniyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlar, ijobiy o'zgarishlar, xalqimizning farovon turmush sharoitlarini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ma'naviyat, milliy qadriyatlarimiz borasida oldimizda turgan dolzarb vazifalar to'g'risida batafsil

S.ABDURAHMONOVA,

Tuman Ma'naviyat va ma'rifati markazi rahbari, Viloyat Kengashi deputati

ma'lumotlar berildi.

Ikkinchi o'n kunlikda o'tkazilgan tadbirlar Harbiy vatanparvarlik ruhida tashkil etilib, ishtirokchilarga "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir" mavzusida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, dunyoqarashini kengaytirish va ular qalbidagi ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini yanada shakllantirish maqsadiga yo'naltirildi.

Uchinchi o'n kunlikdagi o'tkazilgan tadbirlar oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, mahallalarda "Eng yaxshi qaynona", "Eng namunalari kelin", "Eng ibratli oila", "Eng namunalari kitobxon oila", "Eng namunalari kitobxon ona" nominatsiyalari bo'yicha tanlovlar tashkil etildi, shuningdek el-yurtning mehru-muhabbatini qozonib, bugungi kunda keksalik gashitini surayotgan inson, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yuristi" faxriy unvoni sohibasi Umsun Astanovaning hayoti va faoliyati aks etgan "Matonati ayol qissasi" kitobining taqdimoti o'tkazildi.

Tadbirlar doirasida tashkil etilgan tanlov va kitobxonlik bo'yicha o'tkazilgan viktorinalar g'oliblari Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi Yangiobod tuman bo'limasining Faxriy Yorlig'i hamda kitoblar jamlamalari bilan taqdirlandilar. Tadbirlar davomida tuman madaniy bo'limi san'atkorlari tomonidan namoyish etilgan konsert dasturlari ishtirokchilarga xushkayfiyat ulashdi.

YANGIOBOD TUMAN KASB-HUNAR MAKTABI E'LON



Yangiobod tuman kasb-hunar maktabi 2024–2025 – o'quv yili umumiy o'rta ma'lumotga (9-sinf) ega, umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarini keying ta'lim olishlari uchun quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha o'qishga qabul qiladi. Kasb-hunar maktabida o'qish istagini bildiruvchilar ota-ona va ularning o'zini bosuvchi shaxslar ishtirokida quyidagi hujjatlarni qabul komissiyasiga taqdim etishlari so'raladi:

No	Mutaxassisliklar nomi	Qabul reja
1	Avtomobil dvigatellarini tashxislash va ta'mirlash	30
2	Traktorchi-mashinist	30
3	Tikuvchi	30
4	Payvandlovchi (elektrogazpayvandlash ishlari)	30
5	Raqamli axborotlarni qayta ishlash ustasi	30
6	Yigiruv ishlab chiqarish operatori (dual ta'lim asosida)	30

Hujjatlar 2024-yil 15 iyundan boshlab qabul qilinadi. O'qish 2024-yil 2-sentabrda boshlanadi. Uzoqdan kelgan o'quvchilar bepul yotoqxona bilan ta'minlanadi. Ma'lumot uchun telefonlar: 97-484-4128, 97-766-1888 Qabul bo'yicha mas'ul kotib: 97-766-1888

YANGIOBOD TUMAN KASB-HUNAR MAKTABI MA'MURIYATI

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI GAZETASI

MUASSIS:

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI

Bosh muharrir:

A. MUHAMMADIYEV

Gazeta Jizzax viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06-041 raqami bilan ro'yhatdan o'tgan.

MANZILIMIZ:

Yangiobod tumani, Yangiobod shaharchasi, Mustaqillik ko'chasi 1-uy.

TAHRIR HAY'ATI:

Ibrohim QARSHIBOYEV

Azizbek NISHIONOV

Valijon XASANOV

Sabohat ABDURAHMONOVA

Beknazar TOSHBEOY

Olimjon BEGMATOV

TELEFON:

+998 72 542-11-31

NASHR UCHUN MAS'UL:

A. MUHAMMADIYEV

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib, sahifalandi. Qog'oz bichimi A-3. Gazeta «RASTR PLYUS PRINT» MCHJ da ofset usulida 750 nusxada chop etildi.

Korxona manzili: Jizzax shaxri, Sayiljoy ko'chasi, 4-uy.

Bosishga ruhsat etildi 12.02.2024-yil

BUYURTMA №

BUYUK KELAJAKNI BIRGA QURAMIZ

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY, MA'RIFIY GAZETASI

2-son (54) 13-fevral, 2024-yil, seshanba

Ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy gazeta

Bahosi erkin narxda

Gazeta 2019-yil yanvardan chiqa boshladi

Yangiobod tumani hokimligi majlislar zalida Xalq deputatlari Yangiobod tuman Kengashining navbatdagi 66-sessiyasi bo'lib o'tdi



arizalar kelib tushgan bo'lib, shundan hokim yordamchilari tomonidan 716 nafariga 6.7 mlrd so'mlik tavsiyanomalar berildi. 629 nafari fuqarolarga 5,88 mlrd so'm kredit mablag'lari ajratildi.

Shuningdek, yoshlar muammolarini hal etilishiga ko'maklashish, yosh avlodning iste'dodi va qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratish borasida 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Ma'ruzachi tomonidan 2023-yil davomida tumanida ariza kelib tushgan yoshlardan 181 nafari bandlik dasturi asosida yoshlar daftoriga kiritilgani ta'kidlandi. 562 nafariga yordam ko'rsatilib, ko'mak ko'rsatilganlar toifasiga o'tkazilgan.

Ish o'rinlariga joylashtirilganlar 78 nafar, mehnat qurollari uchun 13 nafar, to'lov-kontrakt uchun 92 nafar, tibbiy xizmat ko'rsatilganlar 70 nafar, SCHR uchun 12 nafar, haydovchilik guvohnomasi uchun 3 nafar, kredit ajratilganlar 6 nafar, yer ajratilganlar 65 nafar va boshqa yo'nalishlar uchun 229 nafariga amaliy yordamlar berilgan.

Sessiya kun tartibidagi 7-masala yuzasidan Yangiobod tuman adliya bo'limi boshlig'i J.Abduxoliqov tomonidan davlat organlari va tashkilotlarning norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti yuzasidan 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axboroti tinglandi.

Ma'ruzada "Inson huquqlari oliy qadriyat huquqiy aktiyasi doirasida o'tkazilgan sayyor qabulda fuqarolardan jami 37 ta murojaat kelib tushgan bolib, shundan 21 tasi joyida hal etildi, 7 tasiga huquqiy tushuntirish berilib, 9 ta murojaat ko'rib chiqish uchun ish yurituvga olingani aytiladi.

Sessiya kun tartibidagi 8-masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangiobod tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri N.Karimovning 2023-yil davomida sektorlar va hududidagi tashkilotlar rahbarlari faoliyati, murojatlar bilan ishlash holati bo'yicha qilgan ma'ruzasi davomida Yangiobod tumani aholisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Veb-sayti, Ishonch telefoni, Prezident pochta si va Xalq qabulxonasiga yo'llangan murojaatlarning soni 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1116 tadan 1059 taga yoki 5 foizga kamaygani ta'kidlandi.

Sessiya kun tartibidagi navbatdagi masalalar yuzasidan tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i T.Shodmonqulovning tuman mahalliy byudjetining 2023-yildagi ijrosi to'g'risidagi hamda 2023-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi axboroti tinglanib, deputatlar tomonidan tegishlixa muhokama qilindi.

Navbatdagi 11-masala yuzasidan tuman IIB boshlig'i o'rinbosari, jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i X.Ismoilovning tumanida jamoat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi axboroti tinglandi, Ushbu masala deputatlar tomonidan muhokama qilib, taklif va fikrlar almashilmoqda.

Sessiya kun tartibidagi 12-masala yuzasidan tuman hokimligi Ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi N.Qobilov so'z olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6166-sonli Farnomida belgilangan vazifalarning ijrosi haqida axborot berdi.

Mazkur axborot deputatlar tomonidan muhokama etilib, tegishli qaror loyihasi tasdiqlandi.

Sessiya kun tartibidagi 13-masala yuzasidan tuman hokimining 1-o'rinbosari R.Abdug'aniyevning tuman mahalliy byudjetidan mablag' ajratish to'g'risidagi takliflari tinglandi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan ushbu masala ko'rib chiqilib, mablag' ajratish to'g'risidagi qaror loyihalari tasdiqlandi.

Sessiya davomida barcha masalalar yuzasidan deputatlarning muzokaralari tinglanib, tegishli qarorlar qabul qilindi va Xalq deputatlari tuman Kengashining 66-sessiyasi o'z ishini yakunladi.

Tuman hokimligi Axborot xizmati

QIZAMIQ - oʻtkir yuqumli kasallik boʻlib, tana haroratining koʻtarilishi, yuqori nafas yoʻllari, koʻz shilliq pardalari, ogʻiz boʻshligʻining yalligʻlanishi va terida qizil, yirik dogʻli toshmalar toshishi bilan xarakterlanadi. Kasallikdan soʻng mustahkam immunitet qoladi. Qizamiq kasalligi bilan emlanmagan va nimjon boʻlgan bolalar koʻproq kasallanadi va ogʻir kechadi. Kasallikning yashirin davri 6-18 kun, bazan 21 kungacha.

Kasallik qoʻzgʻatuvchisi virus hisoblanib, bemor yoʻtalganda, aksirganda, gaplashganda tupugining mayda tomchilari orqali havoga tushadi, keyin nafas yoʻllari orqali sogʻlom bolaning organizmiga oʻtadi.

Kasallikning ilk belgilari: tana haroratining koʻtarilishi, quruq yoʻtal, tumov, koʻzi qizarishi va yoshlanishi, tovush boʻgʻilishi, yorugʻlikka qaray olmaslik, lunj shilliq pardasi atrofida qizil mayda oq dogʻlar paydo boʻlishi undan keyin yuqoridan boshlab butun tanasida toshmalar paydo boʻladi.

Kasallik oʻz vaqtida toʻgʻri davolanmasa, zotiljam (oʻpka yalligʻlanishi), tomoqning shishi, oʻrta quloqning yalligʻlanishi (otit), ichak kasalliklari kabi asoratlari yuzaga kelishi mumkin.

Kasallikning ilk belgilari kuzatilganda, zudlik bilan shifokorga murojaat qilish va uning tavsiyalariga koʻra davo-muolajalarini olish kerak.

Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan qizamiq va qizilcha kasalligi boʻyicha eʼlon qilingan maʼlumotlarga koʻra, ayni paytda dunyoning 153 ta davlatida, xususan, Rossiya, Fransiya, Gruzija, Ukraina, Italiya, Serbiya, Gretsiya hamda qoʻshni boʻlgan Tojikiston, Qirgiziston va Qozogʻistonda epidemilogik vaziyat murakkablashganligi xabar qilingan.

2022-yilda dunyoda 155000 holatda qizamiq qayd etilgan, 2023-yilning 5 oyi davomida esa 41000 holat qayd etilgan boʻlib, ulardan 37 tasi oʻlim bilan yakunlangan.

Respublikamizga xam qizamiqning chetdan kirib kelish holatlari uchrab turibdi. Kasallanganlarning asosiy qismini qizamiqqa qarshi emlanmagan aholi tashkil etmoqda. Shuni taʼkidlash joizki, qizamiq kasalligining oldini olishning yagona va eng samarali usuli ushbu kasallikka qarshi emlashdir.

Gepatit C — gepatit C virusi sabab jigaming yalligʻlanishidir. Kasallikning ikkita kechish turi farqlanadi: **oʻtkir** va **surunkali**. Oʻtkir gepatit C ning rivojlanishi virus bilan zararlengandan keyin boshlanadi. Bu vaqtda koʻpchilik kasallanganlarda hech qanday belgilar kuzatilmaydi. Taxminan **50-80%** zararlangan insonlarda kasallik keyinchalik esa surunkali gepatit C shakliga oʻtadi. Surunkali bosqich oʻn yillar davomida shakllanadi va u ham hech qanday alomatlarisiz kechishi mumkin. Agar kasallik davolanmasa, bemor oxir-oqibat jigar kasalliklariga duchor boʻladi va kasallik tashuvchisiga aylanadi.

Oʻtkir bosqichda **65%** insonlarda aniq belgilar kuzatilmaydi. Kasallik rivojlanib borishi bilan belgilar ham yaqqolroq namoyon boʻla boshlaydi (2-26 haftadan soʻng) va 2-12 hafta davom etadi. Ular, qorinning yuqori qismidagi ogʻriq, ayniqsa oʻng tarafda, siydik rangining toʻq boʻlishi, rangsiz axlat (oqimtir), sariqlik (teri va koʻz sargʻayishi), koʻngil aynishi va ichak faoliyatining buzilishi, charchoq, biroz istma va titroq, mushaklardagi ogʻriq, ishtaha yoʻqolishi, kayfiyatning tezda oʻzgarishi, boʻgʻimlardagi ogʻriq.

SURUNKALI GEPATIT C BELGILARI VA ALOMATLARI

Surunkali bosqichida bemorlar odatda, aniq belgilarsiz holda yillar davomida yashaydilar. Bu baʼzan “faoliyatsiz” yoki “yashirin” gepatit C deb ataladi. Natijada yalligʻlanish va chandiq (jigar serozi) bilan birga faol surunkali gepatit rivojlanadi. Kasallik davolanmasa, jigar sirrozi, jigar yetishmovchiligi va jigar saratonlari (gepatosellyulyar saraton) va hatto oʻlimgacha olib borishi mumkin. Surunkali gepatit C belgilari: zaiflik va charchoq, koʻngil aynishi, ishtaha yoʻqolishi, mushak va boʻgʻimlardagi ogʻriq, vazn yoʻqotish.

Surunkali gepatit C jigar yetishmovchiligiga (jigar dekompensatsiyasi) olib kelgani bois qoʻshimcha alomatlar kuzatiladi, siydik rangining toʻq boʻlishi, sariqlik (teri va koʻz sargʻayishi),qichish, suyuqlik toʻplanishidan kelib chiqadigan qorindagi shishlar, suyuqlik toʻplanishi tufayli oyoq shishishi, qon qayʼqilish, umumiy qorin ogʻrigʻi.

Gepatit C virus bilan kasallangan shaxsdan boshqa shaxsga yuqadi. Virus hayvonlar yoki hasharotlardan yuqmaydi.

Virus jinsiy aloqa yoʻli bilan yuqishi mumkin, lekin bu kamdan-kam hollarda kuzatiladi. Ogʻizda jarohatlar yoki yaralar boʻlganda oʻpish orqali yuqishi mumkin, lekin bu ilmiy isbotlanmagan. Soʻlakda virus uchramaydi, albatta agar soʻlakda qon boʻlmasa. Shaxsiy gigiyena vositalari, masalan tish choʻtkasi va ustalarlar umumiy ishlatilganda virus yuqishi mumkin. Virus yuqishining yana bir yoʻli bu zaralanib boʻlgan donor aʼzosini boshqa insonga koʻchirib oʻtkazilishidir. Hozirgi paytda zararlangan organlarni koʻchirib oʻtkazish eng soʻnggi va boshqa umid qolmaganda chora sifatida qaraladi. Virus bilan yangi tugʻilgan chaqaloq onasi orqali zararlaniishi mumkin. Istisnolar, ona qonida virus uchramasa. Ona suti orqali gepatit C uzatilishi qayd qilinmagan. Gepatit C oziq-ovqat, suv orqali yuqmaydi.

Kasallikka qarshi hech qanday vaktsina kashf etilmagan. Zararlanishni oldini olish uchun:

- Jinsiy aloqa vaqtida himoyalaniish;
 - Boshqa insonning shaxsiy gigiyena asboblaridan foydalanmaslik;
 - Goʻzallik salonlari va tatu salonlarda eʼtibori boʻlish, ularning asboblarida har xil viruslar,jumladan OIV yoki gepatit C virusi uchrashi mumkin;
- Hozirgi kunda tumanimiz hududida virusli gepatit B va C kasalliklarini noinvaziv testlar yordamida samarali, usn va tekni aniqlash amalga oshirilmogda. Kasallik aniqlangan bemorlar Jizzax viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasi qoshida ochilgan gepatomarkazidan tekinga dori-vositalarini olishlari mumkin.

Gepatit B — bu virusli kasallik boʻlib, virus organizmga tushganda hayotiy zarur boʻlgan ichki organlarga salbiy taʼsir koʻrsata boshlaydi. Ushbu kasallik tufayli eng koʻp jigar shikastlanadi, uning shikastlanishi mikro-hujayrali darajada boʻladi. Gepatit B alomatlarisiz kechishi yoki aniq belgilar bilan namoyon boʻlishi mumkin. Surunkali bosqichiga oʻtganda, ushbu virusli infektsiya koʻpincha jigar serozi va saratonlari rivojlanishiga olib keladi.

B guruh gepatiti rivojlanishining sababi bu kasallik qoʻzgʻatuvchisi — virusning inson organizmiga kirishidir. Kasallik ayniqsa bir qator salbiy omillar (alkogol, nikotin, kimyoviy va zaharli moddalar, dorilar) taʼsirida zaiflashgan immunitetli kishilarda koʻp uchraydi. Immunitetga shuningdek boshqa kasalliklar ham taʼsir qiladi, bu tanadagi metabolik buzilishlar, vitamin va minerallarning yetishmasligi tufayli yuz beradi.

Gepatit B bilan ogʻrigan insonlar ijtimoiy izolyatsiyada boʻlmasligi kerak, chunki bu virus havo-tomchi yoʻllari orqali yuqmaydi. Kasal odam bilan aloqada boʻlgan har qanday kishi zarur choralarini va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishi kerak. Koʻp yillar butun dunyo boʻylab olib

Oʻzbekistonda qizamiqqa qarshi emlash 1963-yildan boshlab Milliy profilaktik emlashlar kalendariga kiritilgan. 12 oylik va 6 yoshli bolalar qizamiq-qizilcha va parotitga qarshi kombinatsiyalangan QPQ vaksinasi bilan emlanadi va barcha bolalar ushbu vaksinani oʻz vaqtida olishlari kerak. Qizamiqga shubhali bemorlarning qoni qizamiq va qizilcha uchun virusologik laboratoriya tekshiruvidan oʻtkaziladi. Qoʻshni davlatlardagi epidemiologik vaziyatdan kelib chiqib oʻtgan yilning oktabr oyida mamlakatimizda 5 yoshgacha boʻlgan bolalar oʻrtasida qoʻshimcha emlash tadbirlari amalga oshirildi, va hozirgi kunda emlanganligi toʻgʻrisida maʼlumotlari boʻlmagan aholi va bolalarni emlash uchun qizamiq-qizilcha vaksinasi mavjud.

2024-yilning shu kuniga qadar Yangiobod tumanida qizamiq kasalligiga chalingan bemorlar aniqlanmadi. Shunday boʻlsada tuman Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat solomatligi boʻlimi tomonidan qizamiq kasalligiga qarshi bir qancha tadbirlar amalga oshirib kelinmogda.

Jumladan, viloyatimizning barcha hududlarida qizamiq va qizilcha kasalliklarining oldini olish boʻyicha qator treninglar va maʼrifiy seminarlar oʻtkazildi. 20 nafar tibbiyot xodimi qizamiq-qizilcha kasalligini epidemiologik nazorat qilish, immunoprofilaktika tadbirlarini oʻtkazish boʻyicha oʻqitildi. Birlamchi tibbiy muassasalarda qizamiqning oldini olish boʻyicha 250 ta eslatmalar tarqatildi. Ish rejasiga asosan mahallalarda, bogʻcha va maktablarda sogʻliqni saqlash muassasalarida qizamiq kasalligi haqida va qizamiqqa qarshi emlash boʻyicha uchrashuvlar (savol-javoblar) tashkil etib borilmogda.

Eslatib oʻtamiz, Qizamiqqa qarshi emlash tadbirlari hududiy davolash profilaktika muassasalarida bepul amalga oshiriladi.

A.A.ABDUQAYUMOV,
Yangiobod tuman sanitariya
epidemiologiya-osoyishtaligi va jamoat salomatligi
boʻlimi boshligʻi

borilgan tadqiqotlar natijasi maʼlumotlariga koʻra, ushbu kasallikning kechishi bemorning qanday infeksiyalanganligiga, shuningdek, uning yoshiga bogʻliq. Agar bemor gepatit B bilan tabiiy yoʻl (masalan jinsiy aloqa paytida) orqali zararlangan boʻlsa, bu holatda kasallik surunkali bosqichga oʻtishi xavfi yuqori boʻladi. Gepatiting bu shakli koʻpincha yoshlarda paydo boʻladi, chunki ular sogʻligʻiga jiddiy eʼtibor bermaydilar va organizmning tashvishli signallariga javob choralarini koʻrmaydilar.

Gepatit B virusi inson organizmiga faqat bemorning biologik materiallari bilan aloqa qilish orqali kirishi mumkin:

- 1) Jinsiy yoʻl orqali.** Gepatit B virusi nafaqat qonda, balki organizmning barcha suyuqliklarida (shu qatorda qin ajralmalari va erkak spermasida) mavjud, shuning uchun himoyalanmagan jinsiy aloqa kasallik yuqishi xavfini oshiradi;
- 2) Soʻlak orqali,** chuqur oʻpishish bilan. Agar kishi tilida kesilgan yoki jarohatlangan sohalar boʻlsa, kishi oʻpishganda gepatit B virusini yuqtirib olishi mumkin;
- 3) Qon orqali.** Bu infeksiyaning eng keng tarqalgan yoʻllaridan biri hisoblanadi. Koʻp bemorlar gepatit B bilan nosteril shpritslar ishlatish va qon quyish orqali kasallangan. Bemorning infeksiyalangan biologik materiali bilan aloqa qilish tegishli sanitariya choralarini oʻtkazilmaydigan goʻzallik salonlarida yuqishi ham mumkin.

4) Tugʻruq jarayonida, agar ona gepatit B tashuvchisi boʻlsa. Bemor ayollarda homiladorlik asoratlarisiz kechishiga qaramay, tugʻruq paytida bola onaning biologik materiallari bilan bevosita aloqada boʻladi va shuning uchun yuqori ehtimollik bilan kasallanishi mumkin.

Virus bemorning tanasiga kirgandan soʻng, gepatitning inkubatsiya davri boshlanadi, bu oʻrtacha 15 dan 90 kun davom etadi, lekin 6 oygacha choʻzilishi mumkin.

Gepatiting oʻtkir shakli quyidagicha kechishi mumkin:

- 1) Oʻtkirlashish bosqichi;
- 2) Uzoq muddatli kasallik;
- 3) Retsidivlar;
- 4) Kamdan-kam hollarda — koma.

Gepatit B kech bosqichlarda tashxis qoʻyilgan boʻlsa yoki kasallik oʻz vaqtida davolanmagan boʻlsa, natijasi aniq: jigar sirrozi yoki gepatotsellyulyar saraton.

Bunday toifadagi bemorlar, shuningdek, gepatit B ning boshqa jiddiy oqibatlariga bilan toʻqnashishi mumkin:

- 1) Miokardit (yurak muskullarining yalligʻlanishi);
 - 2) Artrit, artroz va boshqa boʻgʻim kasalliklari;
 - 3) Qon tomirlari va buyrak kasalliklari va boshqalar.
- Bunday asoratlar oqibatida oʻlimga olib keladigan xavf sezilarli darajada oshadi.
- Inson organizmida rivojlanayotgan gepatit B tashqi belgilarni namoyon qiladigan bemorlarda quyidagi alomatlar kuzatilishi mumkin: koʻngil aynishi, bosh aylanishi, chachoaq, rinit, tana haroratining koʻtarilishi, teri rangining oʻzgarishi(sariqlik), shilliq qavat, koʻz skleralari, kaftlarning sargʻayishi, siydik rangining oʻzgarishi (u koʻpira boshlaydi, rangi qora pivo yoki achchiq choy rangiga oʻxshaydi), boʻgʻimlardagi ogʻriq sindromi, ishtahaning yuqotishi, axlatning rangi oʻzgaradi (rangsizlanadi, oqimtir tus oladi), oʻng ovurga ostida ogʻirlik, varaja.
- Gepatit B surunkali bosqichga oʻtganda bemorlarda asosiy simptomlarga qoʻshimcha ravishda organizmning zaharlanishiga olib keladigan jigar yetishmovchiligi belgilari ham kuzatiladi. Agar kasallikning ushbu bosqichida bemor toʻliq davolanmasa, kasallik markaziy asab tizimining zararlanishiga olib keladi.
- Gepatit B bilan kasallanishni oldini olish uchun odamlarga oʻz vaqtida vaktsina olish tavsiya etiladi.
- B guruh gepatitiga qarshi emlash olgan kishilar ushbu kasallik uchun immunitet rivojlantiradilar:**

- 1) Birinchi emlashdan soʻng — bemorlarning 50% ida;
 - 2) Ikkinchi emlashdan soʻng — bemorlarning 75% ida;
- Uchinchi vaktsinani kiritgandan soʻng — 100% bemorlarda

ADLIYA RUKNI

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-dekabrdagi 660-sonli qarori bilan Davlat mulkini ijaraga berish tartibi toʻgʻrisidagi nizom tasdiqlandi.

Nizomga koʻra, davlat mulkini ijaraga berish jarayoni har qanday jismoniy va yuridik shaxs (tashabbus koʻrsatuvchi) tashabbusi asosida boshlanishi mumkin.

Bunda tashabbus koʻrsatuvchi bevosita Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obʼektlaridan samarali foydalanish markaziga yoki uning hududiy boshqarmalariga (ijaraga beruvchiga):

- davlat mulkining tavsifi va joylashgan joyini;
- balansda saqlovchini (bunday maʼlumotlarga ega boʻlgan taqdirda) koʻrsatgan holda taklifini yozma yoki elektron taqdim etadi.

Takliflar shu kunning oʻzida koʻrib chiqish uchun ijaraga beruvchiga yuboriladi. Shunga koʻra, ijaraga beruvchi 2 kun muddatda balansda saqlovchiga davlat mulkini ijaraga berish boʻyicha munosabat bildirish yuzasidan soʻrov yuboradi.

Ijaraga beruvchi balansda saqlovchining arizasi kelib tushgandan 2 kunda davlat mulkini “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali onlayn-auksion savdosiga chiqaradi.

Ijaraga oluvchi tomonidan ijtimoiy soha obʼekti tarkibidagi yerda:

- binolar va inshootlar, jumladan, yer osti inshootlarini qurish (yengil konstruksiyali inshootlar bundan mustasno);
- koʻngilochar obʼektlar faoliyatini tashkil etish (madaniyat obʼektlarining yer uchastkalari bundan mustasno) taqdimlanadi.

Davlat mulki ijarasining eng koʻp muddati:

- bir ijara shartnomasi doirasida 6 yil;
- nodavlat professional taʼlim tashkilotlari hamda kichik tadbirkorlik subʼektlari, shu jumladan, xususiy tibbiyot tashkilotlari uchun 10 yil etib belgilanadi.

Davlat mulki obʼektlari ijaraga berish uchun auksionga chiqarilganda, ijaraga berish muddati 3 yil etib belgilanadi.

Koʻchmas mulk 1 yildan kam boʻlmagan muddatga ijaraga berilganda, ijara shartnomasi davlat roʻyxatidan oʻtkazilishi shart.

Avtomototransportlar savdo platformasi vositasida onlayn-auksion orqali ijaraga berilganda, ijara shartnomalarini notarial tartibda tasdiqlash talab etilmaydi.

Ijaraga berilayotgan mulklarni hisobga olish va maʼlumotlar bazasini yuritish ijaraga beruvchi tomonidan online-ijara.uz axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

J.ABDUXOLIQOV,
Yangiobod tuman adliya boʻlimi boshligʻi

Xodimlarni xizmat safariga yuborish tartibi qanday?

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 424-son qaroriga ilovada tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari toʻgʻrisida”gi nizom 2-bandiga koʻra tashkilot rahbarining buyrugʻiga (qarori, farmoyishiga) asosan xodimning oʻzining doimiy ish joyidan boshqa joyga xizmat toshpirligʻini bajarish uchun maʼlum bir muddatga yuborilishi xizmat safari hisoblanadi.

Xodimning xizmat safari muddati tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi.

Bunda xizmat safari muddati yoʻldagi vaqtni hisobga olmagan holda 30 kalendar kundan koʻp boʻlmasligi lozim.

TUMAROV,
Yangiobod tuman adliya boʻlimi
yuridik xizmat koʻrsatish markazi boshligʻi

Xodimlarga taʼtil davrida ustama toʻlanmaydimi?



moddasiga muvofiq har yilgi mehnat taʼtilida boʻlgan vaqti uchun xodimga ushbu Kodeksning 257-moddasiga muvofiq hisoblab chiqariladigan oʻrtacha ish haqining saqlanishi kafolatlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-57-sonli Qarorining 9-bandiga koʻra, umumiy quvvati 100 kVtgacha boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini oʻrnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ular foydalanishga topshirilgan paytdan eʼtiboran 3 yil muddatga, oʻrnatilayotgan quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam boʻlmagan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan oʻrnatilgan boʻlsa-10 yil muddatga quyidagilarni toʻlashdan oʻzib etilishi belgilangan:

- ushbu qurilmalar boʻyicha mol-mulk soligʻi;
- qurilmalar bilan band boʻlgan uchastkalar boʻyicha yer soligʻi ngini;
- yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda soligʻi ni.

Qarorning 15-bandiga asosan Respublika hududlarida aholi xonadonlariga kichik quvvatli (umumiy quvvati 50 kVt gacha) quyosh panellarini oʻrnatishni ragʻbatlantirish boʻyicha “Quyoshi xonadon” dasturi amalga oshirilishi belgilangan.

Dastur doirasida jismoniy shaxslarga tegishli obʼektlarda oʻrnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va oʻz isteʼmolidan oʻrtirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-sotiga 1 000 soʻmdan subsidiya ajratiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdgi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi PF-220-sonli Farmoni 1-2-ilovalariga muvofiq qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining qiymatini toʻliq toʻlagan holda ularni xarid qilgan va oʻrnatgan isteʼmolchilarga xarid xarajatlarining bir qismi quyidagi miqdorlarda Tarmoqlararo energiyani tejash jamgʻarmasi hisobidan kompensatsiya qilinadi:

- Quyosh yoki shamol elektr stantsiyasini oʻrnatganlik uchun kompensatsiyalar miqdori oʻrnatilgan quvvati:
 - 0,5 kVtdan 1 kVtgacha boʻlganda BHMning 7 barobar (2 mln 310 ming soʻm soʻm);
 - 1 kVtdan 1,5 kVtgacha boʻlganda BHMning 10 barobar (3 mln 300 ming soʻm soʻm);
 - 1,5 kVtdan 2 kVtgacha boʻlganda BHMning 15 barobar (4 mln 950 ming soʻm soʻm);
 - 2 kVt va undan yuqori boʻlganda BHMning 20 barobar (6 mln 600 ming soʻm soʻm);
 - 5 kVt va undan yuqori boʻlganda BHMning 50 barobar (16 mln 500 ming soʻm soʻm, faqatgina yangi yerlar oʻzlashtirilganda va tik quduqlarda oʻrnatilgan suv nasoslarining elektr energiyasi isteʼmoli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari orqali taʼminlanganda).

J.ABDUXOLIQOV,
Yangiobod tuman adliya boʻlimi boshligʻi

Bunda oʻrtacha ish haqi u hisoblanadigan oydan oldingi oʻn ikki oyni tashkil etuvchi hisob-kitob davri yoxud agar xodim oʻn ikki oydan kam ishlagan boʻlsa, amalda ishlagan davr uchun xodimga hisoblangan ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Shu qoidaga koʻra xodimning oʻrtacha oylik ish haqini hisoblashda u 12 oydan ortiq ishlagan boʻlsa, uning taʼtilga chiqishdan oldingi 12 oylik davrda korxonadan olgan barcha toʻlovlari (ish haqi, moddiy yordam, mukofot puli va boshqalar) qoʻshilgan holda 12ga boʻlinadi.

Mana shu qoidaga koʻra sizdagi vaziyatda taʼtilga chiqishgizdan qoldiq oylarda toʻlangan barcha toʻlovlar, shu jumladan ustamalar ham sizning oʻrtacha ish haqingizni hisoblashda qoʻshiladi.

E.IABBAROV,
Yangiobod tuman adliya boʻlimi
yuridik xizmat koʻrsatish markazi bosh yuriskonsulti

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yer uchastkalariga nisbatanm xususiy mulkchilik instituti joriy etilishi va mulk huquqining daxlsizligiga oid qonunchilik takomillashtirilishi munosabati

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yer uchastkalariga nisbatan xususiy mulkchilik instituti joriy etilishi va mulk huquqining daxlsizligiga oid qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan prezident ayrim hujjatlarga oʻzgartirishlar kiritish, shuningdek, boʻzilarini oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblash toʻgʻrisida”gi 2023-yil 19-iyundagi **PF–99-son** Farmoni qabul qilingan.



Mazkur hujjat bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi oʻzgartirishlar kiritildi:

- qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yer uchastkalarini mulk va ijara huquqi asosida

elektron onlayn-auksion orqali berish (realizatsiya qilish);

- yer uchastkalarini toʻgʻridan-toʻgʻri ajratishni nazarda tutuvchi tartiblar, imtiyoz va istisnolarni toʻliq chiqarib tashlash;

- jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish boʻyicha respublika va hududiy maqsadli jamgʻarma faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti hujjatlari boʻyicha oʻzgarishlar.

Unga koʻra, endilikda sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlarini qishloq xoʻjaligidan boshqa maqsadlar uchun, shu jumladan sanoat va fuqarolik obʼektlari (binolar va inshootlar) qurilishi uchun, shuningdek, unumor tuproq talab etilmaydigan ilgʻor texnologiyalarning (gidroponika va boshqalar) yangi usullari qoʻllaniladigan issiqxonalari qurilishi uchun ajratishga yoʻl qoʻylmaydi.

Mazkur bandning eski tahririda ham shu mazmundagi cheklov majud edi. Biroq Prezident qarorlari bilan ajratiladigan yerlar ushbu tartibdan istisno qilingan edi.

Endilikda, “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan ajratiladigan yerlar bundan mustasno”, jumalari ushbu banddan olib tashlandi va sugʻoriladigan yerlarni qishloq xoʻjaligidan boshqa maqsadlar uchun ajratish toʻliq taqiqlandi.

B.MAMANAZAROV,
Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish A.Jning Jizzax viloyat hududiy vakili (bosh mutaxassisi)